

ТИЛНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ТИЗИМИ,
ҚИЁСИЙ ТИПОЛОГИК ИЗЛАНИШЛАР
ВА АДАБИЁТШУНОСЛИК
МУАММОЛАРИ

МАТЕРИАЛЛАР ТЎПЛАМИ XII



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**ТИЛНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ТИЗИМИ,
ҚИЁСИЙ ТИПОЛОГИК ИЗЛАНИШЛАР ВА
АДАБИЁТШУНОСЛИК МУАММОЛАРИ
МАТЕРИАЛЛАР ТЎПЛАМИ**

XII

**Бухоро
"Дурдона" нашриёти
2021**

For example *"to wear one's heart on one's sleeve"* - this means to reveal smb's intim stories; *"to have one's heart on one's boot"* - to be in a deep depression etc.

According to this analysis we can clearly define somatic elements in phraseological units and idiomatic expressions. They enhance the language and show how the outer world and events are reflected in a given language. Language with its whole inner system serves to carry the idea. The right select of words obviously expresses the consciousness of a nation.

Conclusion. Somatic idiom depends on what a speaker really suggests to. This fact once again shows the communicative significance of a somatic idiom which is revealed in English language and the range of use of somatic idioms contrast from the use of literary exclamation.

The outgoing significance and the variety of a somatic idiom usage is wider and it can contain several, sometimes contradictory functions.

References:

1. Arnold I. V. - The English Word - High School, 1986.
2. Berlizon S. - Collocations in Modern English, 1975.
3. Courtney R. - Longman Dictionary of Phraseological Verbs, Harlow, 1986.
4. Cowie A.P., Mackin R., McCaig I. R. - Oxford Dictionary of English Idioms. Volume 2; Oxford University Press, 1983.
5. Garman M. - Psycholinguistics, 1990.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA INSON TANA A'ZOLARI ISHTIROK ETGAN FRAZEOLOGIZMLARNING PRAGMATIK TAHLILI

**Gadoyeva M.I. (BuxDU Ingliz tilshunosligi kafedراس dotsenti),
Karimova F.I. 1-bosqich magistranti (BuxDU)**

Annotatsiya. Ushbu maqola o'zbek tilidagi inson tana a'zolari qatnashgan frazeologizmlarning ingliz tilidagi muqobillarining pragmatik tahlillariga bag'ishlangan. Inson tana a'zolariga kiruvchi "bosh/head", "burun/nose", "bo'yin/neck", "ko'z/eye", "brain/miya", "foot/oyoq", "mouth/og'iz", "tongue/til" so'zlarini mukammal tahlil qilish uchun frazeologik birliklarning muqobillari aniqlangan.

Annotation. This article devoted to the pragmatic analysis of phraseologisms including parts of the body in Uzbek language and their equivalents in English language.

For the perfect analysis of phraseological units with parts of the body, such as "bosh/head", "burun/nose", "bo'yin/neck", "ko'z/eye", "brain/miya", "foot/oyoq", "mouth/og'iz", "tongue/til" and their equivalents are defined.

Аннотация. Данная статья посвящена прагматическому анализу фразеологизма с участием части тела человека с понятиями "голова/head",

“нос/nose”, “шея/neck”, “глаза/eye”, “мозг/miya”, “нога/oyoq”, “рот/og'iz”, “язык/til”.

Для точного анализа фразеологизма с участием части тела человека определены эквиваленты на узбекском и английском языках.

Kalit so'zlar: frazeologizmlar, pragmatik tahlil, inson tana a'zolari, bosh, burun, bo'yin, ko'z, miya, oyoq, og'iz, til.

Key words: phraseologisms, pragmatic analysis, parts of the body, head, nose, neck, eye, brain, foot, mouth, tongue.

Ключевые слова: фразеологизмы, прагматический анализ, части тела человека, голова, нос, шея, глаза, мозг, нога, рот, язык.

Frazeologizmlar tilning lug'at boyligini oshiruvchi hamda tilning jozibasini yanada ko'rkamlashtiruvchi nutqning eng bo'yoqdor vositalardan biridir. Ingliz va o'zbek tillarida muloqotga kirishishda frazeologik birliklar muhim rol o'ynaydi chunki xalqning urf-odatlar, madaniyati, tarixi aynan frazeologik birliklar orqali yaqqol aks ettiriladi. Frazeologik iboralar o'z ma'nodoshlari bo'lmish so'zlarga nisbatan, ma'noni kuchli darajada ifodalaydi hamda ularda obrazlilikni yorqin aks ettiradi. Frazeologik iboralar turmushdagi turli voqea-hodisalarga guvoh bo'lish, kishilarning xilma-xil harakat-holatlariga baho berish, tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan aniq-tiniq xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir.

Ma'lumki, frazeologik birliklar til birligi sifatida nutqqacha tayyor holda mavjud bo'ladi, ya'ni frazeologizmlarning tarkibidan biror qismni chiqarib tashlash, tushirib qoldirish mumkin emas. Masalan, “boshida yong'oq chaqmoq” iborasi tarkibidagi “bosh” so'zini “qo'l yoki oyoq” so'zlari bilan almashtirish yoxud “yong'oq” so'zini tushirib qoldirish maqsadga muvofiq emas. Ushbu vaziyatda frazeologik birlik o'z xususiyatini yo'qotadi.

Hozirgi ingliz va o'zbek frazeologik birliklarida lug'aviy ma'no asosan metafora yo'li bilan ko'chirish natijasida taraqqiy etgan. Mana shunday metafora usuli orqali hosil bo'lgan frazeologizmlar tarkibida “inson tana a'zolari” eng ko'p uchraydigan elementlardan biridir.

Inson tana a'zolari ishtirok etgan frazeologik birliklar hozirgi kunga qadar A.M. Chepasov, N.F. Aliferenko, V.A. Lebedinskaya, L.P. Gasheva, Y.R. Ratushnaya kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Frazeologizmlar tarkibida inson tana a'zolarining qo'llanilishi ham ingliz tili, ham o'zbek tili uchun xosdir. Masalan, inson tana a'zosi hisoblanmish “bosh” so'zini misol tariqasida olsak, ingliz tilidagi “head in the clouds” iborasi o'zbek tilidagi “boshi ko'kka yetmoq” iborasiga teng bo'lib, “cheksiz quvonch, shodlik” ma'nolarini ifodalaydi.

Har ikkala tilda inson tana a'zolari hisoblanmish bosh, qo'l, bo'yin, yelka, bel, oyoq va boshqa tana a'zolari ishtirok etgan frazeologik birliklarning muqobili mavjud bo'lib, ular ma'no jihatidan mutlaq yoki qisman bir biriga muvofiq keladi.

1. Inson tana a'zosi "bosh/head" ishtirok etgan iboralar va ularning muqobillari: a) Boshi shishmoq – one's head is buzzing. Ma'nosi: o'ylayverib gangimoq

b) Boshini bir yerga birlashtirmoq – to put heads together. Ma'nosi: hamjihat bo'lib birlashmoq

c) Bosh ko'tarmoq – to make heads against. Ma'nosi: kurashga chog'lanmoq, isyon qilmoq

d) Boshi ko'kka yetmoq – head in the clouds. Ma'nosi: cheksiz quvonmoq, shodlanmoq

e) Boshdan oyoq – from head to toe. Ma'nosi: ipidan ignasigacha, bus-butun

2. Inson tana a'zosi "burun/nose" ishtirok etgan iboralar va ularning muqobillari:

a) Burun suqmoq – stick your nose in. Ma'nosi: aralashmoq, tumshug'ini suqmoq

b) Burnini bir qarich ko'tarmoq, Burni osmonga ko'tarilmoq – have your nose in the air. Ma'nosi: gerdaymoq, kibrlanmoq

c) Burnini yerga ishqalamoq – cut off your nose to spite your face. Ma'nosi: qattiq jazolamoq

3. Inson tana a'zosi "bo'yin/neck" ishtirok etgan iboralar va ularning muqobillari:

a) Bo'yniga tushmoq, Gardaniga tushmoq – be up to (one's) neck in (something). Ma'nosi: yuklamoq

b) Bo'ynidan soqit qilmoq – stick one's neck out. Ma'nosi: o'zini javobgarlikdan xoli qilmoq

c) Bo'yniga qo'ymoq – a yoke around (someone's neck). Ma'nosi: zimmasiga olmoq

4. Inson tana a'zosi "ko'z/eye" ishtirok etgan iboralar va ularning muqobillari:

a) Ko'zini shira bosmoq – get stars in one's eyes. Ma'nosi: Takabburlanmoq, tanib tanimaganga olmoq

b) Ko'zini qamashtirmoq – feast one's eyes on something. Ma'nosi: Go'zalligiga, ko'pligiga mahliyo bo'lmoq

c) Ko'z tegmoq – get a black eye. Ma'nosi: Ko'zikmoq

d) Ko'zi ko'r, qulog'i kar bo'lmoq – turn a blind eye to someone or something. Ma'nosi: haqiqatni ko'ra, bila turib tan olmaslik

e) Ko'z tikmoq – give someone the eye. Ma'nosi: tikilib qaramoq, umidvor bo'lib qaramoq

f) Ko'zdan kechirmoq – keep an (one's) eye out (for someone/something). Ma'nosi: tasavvurida ketma-ket gavalantirmoq

g) Ko'zini uzmaslik – have one's eye on someone. Ma'nosi: Muttasil, diqqat bilan qaramoq

5. Inson tana a'zosi "brain/miya" ishtirok etgan iboralar va ularning muqobillari:

a) Miyasi achigan – brain like a sieve. Ma'nosi: ko'p o'ylash natijasida fikr yurita olmaslik holatiga yetmoq

b) Miyasi g'ovlab ketmoq – wrap your brain around something. Ma'nosi: O'ylayverib gangimoq

c) Miyasini qotirmoq – beat one's brains out. Ma'nosi: Diqqat bilan o'ylamoq

7. Inson tana a'zosi "foot,leg/oyoq" ishtirok etgan iboralar va ularning muqobillari:

a) Oyog'iga bosh urmoq – sweep someone off their feet. Ma'nosi: Xokisor bo'lmoq, xokisorlik.

b) Oyoqqa turmoq – to regain one's feet. Ma'nosi: o'nglamoq, vaziyatni tiklamoq

c) Oyog'ini tirab olmoq – to vote with one's feet. Ma'nosi: O'z fikrining amalga oshishini qaysarlik bilan talab qilmoq

8. Inson tana a'zosi "mouth/og'iz" ishtirok etgan iboralar va ularning muqobillari:

a) Og'zini yummoq – take words out of mouth. Ma'nosi: gapirishini to'xtatmoq, gapirishdan to'xtatmoq

b) Og'ziga talqon solmoq - to plug your mouth. Ma'nosi: Mutaqo gapirmaslik, suhbatda mutlaqo qatnashmaslik.

c) Og'zini ko'pirtirmoq – foaming at the mouth. Ma'nosi: Xayoliga kelgan gaplarni so'zlamok

9. Inson tana a'zosi "tongue/til" ishtirok etgan iboralar va ularning muqobillari:

a) Tilini tishlamoq – bite your tongue. Ma'nosi: O'zini gapirmaslikka majbur qilmoq.

b) Tili chiqmoq – give the rough edge of your tongue. Ma'nosi: Aytishadigan bo'lmoq, gap qaytarmoq.

c) Tilni uchida turmoq – on the tip of your tongue. Ma'nosi: Bilishingizga amin bo'lgan holda, eslay olmaslik.

d) Tili qisq – tongue tied. Ma'nosi: Gapirmaslikka, e'tiroz bildirmaslikka majbur.

e) Tilini qichitmoq – tongue-lashing. Ma'nosi: e'tiroz bildirishga, gap qaytarishga undamoq.

Demak, frazeologik birliklarda obrazlilik, bo'yoqdorlik bo'rtib turadi. Ibora yoki uning bir qismi ko'pincha ko'chma ma'noda bo'lganligi uchun obrazlilikka boy bo'ladi. Frazeologizmlarning inson tana a'zolari orqali ifodalanishida iboraning umumiy ma'nosi hamda uning tarkibidagi so'zlarning lug'aviy ma'nolari bilan ma'lum darajada bog'langan bo'ladi. Inson tana a'zolari qatnashgan frazeologizmlar nutq faoliyatida eng ko'p ishlatiladigan

elementlardan biri bo'lib, ularni nutqda to'g'ri qo'llay olish nutqimizning yanada jozibador bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – 380 b.
2. Usmonova D.S. A typological analysis of body parts names in English as part of somatic phraseology. – Farg'ona: Филологические науки, 2011. - 32-34 b.
3. Джаилова Н.Д. Лингвистический анализ сравнения фразеологизмов в узбекском и английском языках. – Ташкент: Вестник науки и образования № 27 (74). Часть 2, 2019 – 48-52 б.
4. Мехтиханлы С.Г. Названия частей тела в составе фразеологизмов русского и персидского языков. – Иран: Filologické vědomosti № 3, 2017 – 16-22 б.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA NOANIQLIK MA'NOSINING SIFATLAR ORQALI IFODALANISHI

**Gadoyeva M.I. (BuxDU, dotsent), Mehmonova Yulduz. BuxDU 2 bosqich
magistrant.**

Mustaqil so'z turkumi sifatida sifat ham noaniqlikni ifodalaydi. Sifat o'zining bajaradigan vazifasi va xarakteriga ko'ra otlarning boshqa turi vazifasini bajarishi kerak. Bu vazifa ikkita usul orqali amalga oshiriladi:

1) noaniqlik qo'shimcha birliklarsiz so'z o'zagining o'zi orqali beriladi;

2) noaniqlik so'z o'zagiga qo'shiladigan maxsus old qo'shimcha morfemalar birikmalari orqali ifodalanadi, bu holatda affikslar noaniqlik markerlari vazifasini bajaradi;

3) noaniqlik sifatlarning boshqa so'zlar bilan birikishi usuli orqali beriladi:

a) nominalizatsiyasiz;

b) nominalizatsiyali qizilga o'xshash va hokazo.

Sifat bu so'z turkumi bo'lib u predmet belgisini protsessual emasligini ifodalaydi va bu ma'noni rod, son va kelishikning so'zni o'zgartiruvchi morfologik kategoriyalarida ifodalaydi. Sifat qiyoslash darajasining morfologik kategoriyasiga ega va to'liq va qisqa formalarda ishlatiladi (29, 540).

Zamonaviy ingliz tilida bir necha belgilarga asoslangan holda miqdorni ifodalovchi sifatlar guruhiga - much, many, few, little larni kiritish mumkin.

Morfologik jihatdan ular sifatlarga yaqin, shuningdek qiyoslash darajasiga ham ega. Boshqa xususiyatlariga ko'ra esa ular songa, shuningdek olmoshlarga ham yaqindir (23, 112).

For many a long day (BARS). He has very little knowledge of the subject (BARS). Such occasions are few (BARS). Much good may it do you (BARS).